



2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA AUDITORLIK FAOLIYATI VA AUDIT INSTITUTLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

QarMII dotsenti

E-mail: egamberdiyeva.salima@bk.ru

Xazratov Sarvar Ibragimovich

QMII magistranti

Azamatova Gulsara Isoqovna

QMII magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarning auditorlik faoliyati, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilib berilgan. Xususan, Amerika va Osiyo mamlakatlarida auditorlik faoliyati, Buyuk Britaniyaning Milliy audit boshqarmasi, uning tuzilishi va tarkibi, Fransiya Hisob sudining faoliyati, Germaniya Hisob palatasining asosiy ish faoliyati va vazifalari bayon qilingan. Ushbu mamlakatlarning auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimi tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: audit, auditorlik faoliyati, davlat auditi, hisob sudi, hisob palatasi, milliy audit boshqarmasi, bosh auditor.

Kirish

Ma'lumki, mustaqil va xolis auditorlik faoliyatining o'rni beqiyosdir. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyatini tizimli tarzda takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Ushbu jarayonni evolyusion rivojlanishi auditorlik faoliyati bilan bog'liq meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ulardan amaliyotda foydalanishni nazorat qiluvchi audit institutining turli tegishli qo'mitalari mavjud.

Auditorlik kompaniyalarining roli va tutgan o'rni bozor infratuzilmasi elementlari ichida alohida ahamiyatga ega. Angliya, AQSH, Kanada, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham

ma'lumki, auditorlik kompaniyalari bozor infratuzilmasi elementlarining zanjirli tizimida asosiy halqalardan biri bo'lib hisoblanadi. Auditorlik kompaniyalari korporatsiyalar, firmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi tuzilmalarning ishlab chiqarish, moliya-xo'jalik faoliyatida muomalalarning to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlab, mijozlarning ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bozor infratuzilmasining eng muhim elementlaridan biri sifatida auditorlik tashkilotlari mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

Butun dunyo iqtisodiyotining globallashuvi va transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi sharoitida moliyaviy hisobot auditi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari jiddiy va tanqidiy tahlil etilmoqda. Investorlar korporativ boshqaruvning turli jabhalarini chuqur tahlil qilib, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining yanada ishonchligini talab etmoqda. Moliyaviy hisobotlar bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatish va xolis auditorlik xulosasini tuzish maqsadida AQShda 404-sonli Sarbeynz-Oksli qonuni qabul qilingan. Bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash, ichki nazoratni takomillashtirish va investorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini to'laqonli joriy etishda mazkur standartlarning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish, ularni amaliyotda qo'llay olish, milliy standartlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiyalash, ilg'or xorij tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy etish kabi masalalarni hal etish uchun moliyaviy hisobot auditini yanada takomillashtirish borasida kompleks tadqiqotlar olib borish zarurati kuchaymoqda. Rivojlangan davlatlarda moliyaviy hisobot auditini takomillashtirishda muhimlik va risk darajalarini aniqlash, auditorlik dalillarini to'plash, auditorlik fikrini shakllantirish, xolis auditorlik xulosasini tuzish borasida keng tadqiqotlar olib borilmokda.

Mamlakatimiz auditorlik faoliyatidagi qator muammo va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu boisdan, mamlakatimizda jahonda umumqabul qilingan zamonaviy normalar, standartlar, shu jumladan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish asosida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etmoqda. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da yurtimizda investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish borasida muhim vazifalar belgilangan.

Keyingi yillarda dunyo mamlakatlarida auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini tashkil etuvchi davlat auditi, auditorlik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar, ichki audit institutlari, xalqaro professional assotsiatsiyalar faoliyati takomillashib bormoqda va ushbu sohada faoliyat yuritayotgan auditorlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, "Sertifikatlangan jamoat buxgalterlari assotsiatsiyasi (The Chartered Association of Certified Accountants-ACCA) 178 dan ortiq davlatlarda 700 mingta"¹, "Amerika sertifikatlangan jamoat buxgalterlari instituti (American Institute of Certified

¹ www.accaglobal.com xalqaro axborot sayti.

Public Accountants – AICPA) 143 dan ortiq davlatlarda 450 mingta”², “Xalqaro ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors, IIA) 150 dan ortiq davlatlarning auditorlik faoliyatini tartibga solish jarayonida faol ishtirok etuvchi jamoatchilik tashkilotlari, shu bilan birga, ichki audit sohasida band bo‘lgan 180 mingdan ortiq a‘zoni birlashtiradi”³. Ta‘kidlash joizki, auditorlik faoliyatining ko‘p pog‘onali tizimini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar qonunchiligi va ilg‘or tajribasini amaliyotga joriy etish, auditorlik tashkilotlari va audit xizmatlar bozorini tahlil qilish eng dolzarb va o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardan sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Audit institutlari va auditorlik faoliyatini turli iqtisodiy va ijtimoiy maktablar hamda ilmiy yo‘nalishlar, shu jumladan, hisob, nazorat va audit sohasi vakillari tomonidan ham tadqiq etilgan.

Respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan rivojlangan mamlakatlarning auditorlik faoliyatini bir qator olim va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Iqtisodchi olim Dusmuratov⁴ o‘zining doktorlik dissertatsiyasida quyidagicha keltirgan: AQShda auditorlik faoliyatini huquqiy – meyoriy tartibga solishning liberal tizimi shakllangan. Bu tizimda professional jamoat tashkilotlari yetakchi bo‘lib, ular auditorlarni attestatsiyalash, auditorlik tekshiruvlar sifatini nazorat qilish, auditorlik faoliyati standartlari vameyorlarini ishlab chiqadilar.

Terexov⁵ tadqiqotlariga ko‘ra: AQShda auditor bo‘lib ishlashga litsenziya olish uchun nomzod universitet ma‘lumoti (kamida bakalavr darajasi) va auditorlik tashkilotida ma‘lum amaliy ish stajiga ega bo‘lishi hamda malakaviy imtihon topshirishi lozim. Uning mutaxassislik bo‘yicha ish staji, unga aynan qaysi shtatda litsenziya berilishiga va ma‘lumotiga bog‘liq bo‘lib, ammo bu da‘vogar odatda auditorlik tashkilotida auditor assistenti bo‘lib ishlagan bir necha yildan iborat.

Iqtisodchi olim Axmedjanov⁶ fikriga ko‘ra, AQShning qonun hujjatlarida auditning quyidagi turlari ajratilgan: ichki audit, davlat auditi, boshqaruv auditi va tartibga soluvchi organlar auditi. Ichki audit mustaqil auditorlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar manfaatlarida amalga oshiriladigan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishini tekshirish va baholashga qaratilgan faoliyatidir.

Karimov va boshqalarning⁷ xalqaro audit nomli darsliklarida quyidagilar keltirib o‘tilgan: AQShda standartlarni ishlab chiqish bilan moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiquvchi kengash (FASB) shug‘ullanadi. Ushbu standartlarning amalda qo‘llanilishini nazorat qilish hukumatning Qimmatli qog‘ozlar va birjalar bo‘yicha komissiyasi (SEC) zimmasiga yuklatilgan. FASB va SECning o‘zaro hamkorligi tufayli AQShda audit standartlari qo‘llanilishining samarali mexanizmi yaratilgan.

Yevropa mamlakatlarining auditorlik faoliyatini ilmiy-nazariy, metodologik, amaliy jihatlarini xorijlik va o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan hamda tegishli ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar shakllantirilgan. Xorijlik olimlar V.V. Myasnikov, N. D Pogosyan ilmiy ishlarida yevropa mamlakatlarining auditorlik faoliyati o‘rganilgan va tadqiq qilingan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar K.B.Axmedjanov, I.Yakubov, R.D.Dusmuratov, A. Karimov, F.

² <https://en.wikipedia.org/> xalqaro axborot sayti.

³ www.hocktraining.com xalqaro sertifikatlash dasturi bo‘yicha axborot sayti.

⁴ Dusmuratov R.D O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish – iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. (2008)

⁵ Терехова А.А. (2001) Аудит: перспективы развития. М.: «Финансы и статистика», – 560 с.

⁶ Axmedjanov K.B. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish – iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi/ Toshkent. (2016).

⁷ Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov: Xalqaro audit/ darslik/ Toshket-2015 / 397 bet..

Islomov va A. Avloqulovlarning ilmiy asarlarida va o'quv darsliklarida atroflicha so'z yuritgan.

Iqtisodchi olimlar K.B.Axmedjanov va I. Yakubovlarning "Audit asoslari" darslikda quyidagicha bayon qilingan⁸: Hozirda Buyuk Britaniyada audit sohasini tartibga soluvchi, auditning metodik asoslarini yaratuvchi va audit standartlarini ishlab chiquvchi tashkilot 1880-yilda tashkil topgan Angliya va Uelsda Qasamiyod Qilgan Buxgalterlar Instituti (ICAEW) va Qasamiyod Qilgan Diplomli Buxgalterlar Uyushmasi (ACCA) hisoblansa, AQShda Amerika Sertifikatlangan Jamoat Buxgalterlari Instituti (AICPA) shu vazifani amalga oshiradi.

Iqtisodchi olimlar A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulovlarning xalqaro audit nomli darsliklarida quyidagini keltirib o'tilgan⁹:

"Auditor iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha sohalarida malakali maslahatchi bo'lishi lozim. U korxonaga keng ma'noda maslahat beradi va shubilan birga iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va huquqiy xarakterdagi muammolarni ko'ra olishi va ularni hal etishning eng oqilona yo'llarini izlab topa olishi lozim"

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishlar jarayonida tahlil va sintez, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, iqtisodiy tahlil, guruxlash, ekspert baxolash hamda taqqoslama usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda moliyaviy va jamoatchilik institutlarini tizimli ravishda shakllantirish va rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi, ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga olib keladi.

Xolis tadbirkorlik faoliyati sifatida auditorlik faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ochiqqligini ta'minlashda muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish jarayonida auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari to'g'riligiga baho beradi. Xususan, moliyaviy hisobotning to'g'riligini tasdiqlaydi yoki ushbu moliyaviy hisobotga ishonib bo'lmasligi haqida o'zining asoslangan fikrini bayon qiladi. O'z navbatida o'tkazilgan auditorlik tekshiruv barcha darajadagi korxonalar va tashkilotlarning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. U shartnoma asosida auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi. Auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir. Auditorlik tashkilotlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tuzilishi mumkin emas.

Respublikamizda auditning milliy amaliyoti iqtisodiyotning rivojlanib borayotgan instituti sifatida raqobat sharoitida shakllanmoqda. Bugungi kunda yuzdan ortiq auditorlik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ular orasida "ERNST & YOUNG", "Praysvoterxaus Kupers", "Deloitte va Touche", "KPMG AUDIT" singari dunyoga taniqli bo'lgan xalqaro auditorlik kompaniyalari sho'ba korxonalari ham bor.

Iqtisodiyotni mukammallashuvi jarayonida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish auditorlik

⁸ K. Axmedjanov, I. Yakubov: Audit asoslari/ darslik/ Toshkent-2010/ 291 bet.

⁹ A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov: Xalqaro audit/ darslik/ Toshket-2015 / 397 bet.

tekshiruvi o'tkaziladigan mijozning xususiyatlarini o'rganish, barcha zarur nazorat tartiblarini standartlashtirish va sinov natijalarini hisobga olish bilan bog'liq. Shu bilan birga, hozirgi sharoitda auditorlik tashkilotlari ko'rsatayotgan xizmatlarga yangi ishlab chiqilgan va rivojlanayotgan yangi professional talablarni takomillashtirish jarayoni davom etmoqda.

Auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimi auditorlik faoliyatini qonun hujjatlari bilan tartibga solish, byudjet mablag'larini davlat tomonidan tashqi va ichki audit orqali tahlil qilish, tegishli organ va jamoat birlashmalari orqali auditorlik tashkilotlari faoliyatini tartibga solish, shuningdek, auditorlik tashkilotlar tomonidan auditorlik tekshiruvlari va turdosh xizmatlar ko'rsatish tizimidir.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro auditorlik amaliyotida olib borilgan tadqiqotlar natijasida tegishli vakolatli organ va jamoat tashkilotlari tomonidan auditorlik tashkilotlari audit tekshiruvining ish sifati va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini tashkil etish samarali mexanizmlarini tarkib toptirish, mazkur tizimdagi turli pog'onalar o'rtasidagi funksional bog'liqlik va izchillikni ta'minlash, davlat auditi, auditorlik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar, ichki audit institutlari, xalqaro professional assotsiatsiyalarning ish faoliyati meyor va standartlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash, bozor iqtisodiyotining turli sharoitlarida auditorlik tashkilot va idoralari o'rtasidagi ustuvorlik hamda bo'ysunuvchanlik tamoyillarining samarali ishlashini ta'minlovchi dastaklarni yo'lga qo'yish, auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimi konsepsiyasini ishlab chiqish, xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqqan holda auditorlik tashkilotlarida ish sifatini ta'minlovchi ichki standartlarni qo'llashni takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik va shaffoflik siyosati, shuningdek, iqtisodiyotimizni jahon standartlari asosida rivojlantirish, moliyaviy sektorni rag'batlantirish va ularning samaradorligini oshirish oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar munosabati bilan auditorlik faoliyatini amalga oshirishning umumiy mexanizmi va auditorlik tashkilotlari tomonidan alohida taqdim etiluvchi auditorlik xizmatlarining o'zaro bog'liqligini shakllantirish va tadqiq etish auditni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bugungi kunga qadar bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. "Xususan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlar va tanlovlar o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda"¹⁰. Shu munosabat bilan, auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini shakllantirish orqali auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va auditorlik tekshiruvi sifatini oshirishning nazariy va uslubiy yo'nalishlarini kompleks olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari auditning xalqaro standartlarini keng joriy etish jarayonlarining jadallashishi hamda ushbu standartlarni O'zbekiston Respublikasining yirik kompaniyalari uchun qonunchilikda joriy etilishi munosabati bilan xalqaro audit standartlarni hisobga olgan holda audit jarayonlari, audit xulosasi va hisobotlarini tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Auditorlik faoliyatining birinchi pog'onasi davlat auditi zamonaviy auditning bir turi hisoblanib, so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda.

Davlat auditi – milliy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan kasbiy faoliyat

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli qarori. www.lex.uz

turi bo‘lib, ularning eng muhimlari davlat moliyasi, mulki, tabiiy boyliklari, intellektual kapital hisoblanadi. Davlat auditi faqat davlat tuzilmalarining moliyaviy hisobotlarini tekshirish bilan cheklanib qolmaydi, uning asosiy vazifasi davlat va jamiyat nomidan davlat organlarining o‘ziga ishonib topshirilgan davlat resurslarini boshqarish faoliyatining mustaqil obyektiv jamoatchilik nazoratini ta’minlashdan iborat.

Mamlakatimizda davlat auditi va nazorati funksiyalari Hisob palatasi, Moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi, Soliq qo‘mitasi va Bojxona qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Auditorlik faoliyatining ikkinchi pog‘onasi davlat nazorati bo‘lib, mamlakatimizda mustaqil audit tekshiruvlari davlat tomonidan tartibga solinadi va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan muvofiqlashtiriladi. Shu maqsadda, O‘zbekistonda ham maxsus qonunlar, turli meyoriy hujjatlar qabul qilingan va auditorlik jamoat tashkilotlari tuzilgan.

Respublikamizda auditorlik faoliyatining tashqi nazoratini tartibga solish va rivojlantirish vazifasini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi (O‘zBAMA), O‘zbekiston Auditorlar palatasi (O‘zAP) amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish, tartibga solish va rivojlantirishda asosiy vazifani bajaruvchi davlat organidir. O‘zbekiston Auditorlar palatasi — malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil notijorat jamoat tashkilotidir. O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi mamlakatimizda auditorlik faoliyatining ilmiy-metodik asoslarini yaratish, auditorlik faoliyati, soliqqa tortish, xususiylashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozori, korxonalar moliya-xo‘jalik faoliyati tahlili va moliyaviy menejment bo‘yicha qonunchilik, meyoriy hujjatlar va milliy standartlarni ishlab chiqishda qatnashadi.

Auditorlik faoliyati ko‘p pog‘onali tizimining uchinchi pog‘onasi mustaqil audit bo‘lib, uning asosini auditorlik faoliyatiga oid qonunlar, qarorlar, nizomlar, yo‘riqnomalar hamda auditorlik faoliyati standartlaritashkil etadi.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyati mustaqil auditning normativ- huquqiy hujjatlari quyidagicha turkumlanadi:

1. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun.
2. Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik yo‘riqnomasi va nizomlari.
3. Xalqaro audit standartlari.
4. Kasb etikasi.

Auditorlik faoliyati ko‘p pog‘onali tizimining 4-pog‘onasi “Ichki audit tizimi” bo‘lib, ichki audit mamlakatimiz audit tizimida muhim o‘ringa ega.

Xo‘jalik yurituvchi subyektda ichki audit obyektiv va mustaqil maslahatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini yaxshilash kafolatlarini berishga qaratilgan faoliyatdir. Ichki auditning maqsadi risklarni baholash, ularni kamaytirish yo‘llarini topish, shuningdek, biznes-jarayonlar daromadlilikini oshirishdan iborat.

Mamlakatimizda ichki audit faoliyati byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimi, banklardagi ichki audit tizimi va aksiyadorlik tashkilotlaridagi ichki audit tizimidan tashkil topgan.

Auditorlik faoliyati ko‘p pog‘onali tizimining 5-pog‘onasini auditorlik tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiluvchi xizmatlar tashkil etadi. Auditorlik tashkilotlari majburiy va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlari, shuningek, qonunchilikda nazarda tutilgan auditorlik faoliyati bilan bog‘liq turdosh xizmatlarni ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlari va turdosh

xizmatlarga talab ortib bormoqda.

Tadqiqotlar natijasida auditorlik faoliyati mamlakatimizda ko'p pog'onali tizimining umumlashgan modeli (1-jadval)¹¹.

1-jadval

Ko'p pog'onali tizimining umumlashgan modeli

Auditorlik faoliyati ko'p pog'onali tizimining onsepsiyasi va umumiy modeli	Pog'onalar	Nazorat turlari	Auditorlik faoliyatini Tartibga solish tizimi	Asosiy qonun va normativ hujjatlar va nazorat qiluvchi tashkilot
	1-pog'ona	Davlat auditi		O'zbekiston Hisob palatasi
			Moliya vazirligi davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi	"Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to'g'risida" nizom
			Soliq auditi	Soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi nizom
			Bojxona auditi	Bojxona auditini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom
2-pog'ona	Audit nazorati	Davlat nazorati	Moliya vazirligi	
		Jamoatchilik nazorati	Auditorlik palatasi Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi	
3-pog'ona	Mustaqil audit	Meyoriy hujjatlar		"Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonu
				Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik yo'riqnomalari va nizomlari
				Xalqaro audit standartlari Kasb etikasi
4-pog'ona	Ichki audit tizimi	Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimi	"Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-sonli qaror	
		Banklardagi ichki audit tizimi	"Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar	
		Aksiyadorlik tashkilotlaridagi ichki audit tizimi	"Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-475-sonli qaror, "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risidagi" nizom	

¹¹ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

5-pog'ona	Auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar	Auditorlik tekshiruvlar	Majburiy audit
			Tashabbus tarzidagi audit
		Turdosh xizmatlar	Buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va tiklash
			Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish
			Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob- kitoblari va deklaratsiya tuzish
		Boshqa xizmatlar	

Moliyaviy sektorni rag'batlantirish va ularning samaradorligini oshirish oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlis lohiyalar munosabati bilan auditorlik faoliyatini amalga oshirishning umumiy mexanizmi va auditorlik tashkilotlari tomonidan alohida taqdim etiluvchi auditorlik xizmatlarining o'zaro bog'liqligini shakllantirish va tadqiq etish auditni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bugungi kunga qadar bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. "Xususan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlar va tanlovlar o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda"⁴. Shu munosabat bilan, auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimini shakllantirish orqali auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va auditorlik tekshiruv sifati oshirishning nazariy va uslubiy yo'nalishlarini kompleks olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu sohada tadqiqotlar doirasini kengaytirishga ilmiy va amaliy qiziqish ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi PQ-3946-son "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 12 maydagi 274-son "Auditorlik tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil

13 martdagi 218-son "Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, bugungi kunda mamlakatimizda audit yangi bosqichga ko'ratilyotgan bir vaqtda yevropa davlatlarining auditorlik faoliyatini chuqur o'rganish va ijobiy jihatlari mamlakatimizga joriy etish lozim. Quyida ayrim rivojlangan davlatlari audit tizimi va ularni afzalliklari va ularni mamlakatimiz audit tizimiga joriy etish imkoniyatlari xususida to'xtalamiz:

1. Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyatining ko'p pog'onali tizimi asosan kreditorlar, investorlar va xo'jalik yurituvchi subektlarining manfaatlarini qondirishga yo'naltirilgan. Bu mamlakatda auditorlik faoliyati asosan jamoat birlashmalari va institutlar tomonidan tartibga solinadi. Shunday bo'lsada, ushbu jamoat birlashmalarining faoliyat ko'rsatishi auditorlik faoliyatida davlat tomonidan hech qanday funktsiya bajarmaydi degan ma'noni keltirib chiqarmaydi. Xukumat qoshida tashkil etilgan Milliy

auditorlik kengashi Bosh auditor tomonidan boshqariladi. Milliy auditorlik kengashi va auditorlik institutlari doimo xamkorlikda ish olib borishadi. Auditorlik faolyatining ko'p pog'onali tizimida asosiy ishlarni mustaqil auditorlik institutlari ishlab chiqishadi va amaliyotga tadbiiq qilishadi. Fikrimizcha, bizning yurtimizda ham Buyuk Britaniyada bo'lgani singari mustaqil auditorlik institutlarini ko'paytirish maqsadga muofiq deb hisoblaymiz.

2.O'zbekistonda foydalanishimiz mumkin bo'lgan Frasiyaning ijobiy tajribasi sifatida, tashkilotlarda ichki nazorat va auditni tashkil etishning aloxida yondashuvi, ish sifatining yuqori samaradorligi hamda moliyaviy hisobotlarga qo'yiladigan talablarning yuqiligini ijobiy baholashimiz mumkin. Fransiyada kompaniya tomonidan soliqlarni vaqtida va to'g'ri to'lanishi qattiq nazorat qilinishi hisobga olsak, auditorlik tashkilotlariga auditorlik tekshiruvidan tashqari soliqlar bo'yicha konsalting xizmatlariga bo'lgan talab kuchli, chunki vaqtida to'lanmagan soliqlar uchun katta miqdorda jarimalar qo'llaniladi. Fransiyada auditorlik faoliyati Angliyaning audit bilan tubdan farq qiladi. Fransiyada auditorlik faoliyati davlat tomonidan nazorati qilinadi.

3.Germaniyaning auditorlik faoliyatiga oid qonun va meyorii xujjatlarni qabul qilish jarayoniga tajribasi O'zbekistonga qo'llash maqsadga muofiq deb hisoblaymiz. Chunki Germaniyada auditga oid qonun hujjatlarini qabul qilishdan oldin, qonun loyihasi uning qabul qilinishi qanday oqibatlariga olib kelishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kutilayotgan va retrospektiv oqibatlar ham o'rganiladi. Ayrim qonun hujjatlari qabul qilinishining ta'sirini tahlil qilishda davlat yuqori malakali auditorlarining zarur bilimlari va tajribasidan foydalanadi. Palata raisi qonun loyihalari bo'yicha ishlarda qatnashadi va nazorat faoliyati natijalariga, davlat institutlari qanday ishlashini chuqur bilishga va qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirishda duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar g'oyalari tayanib o'z fikrlarini bildiradi. U nafaqat dastlabki ma'lumotlar va qonun loyihasi asosidagi taxminlarning jiddiyligini baholaydi, balki tahlilning har tomonlama, izchil va oqilona ekanligini ham tekshiradi.

4.Ilmiy izlanishlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, Italiya va Shvetsiya davlatlarida auditorlik faolyaiti davlat tomonidan nazorat qilinadi. Shvetsiyada auditor va auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvini o'tkazishidan oldin sug'urta shartnomasini tuzishlari yoki Audit komissiyasiga garovga pul mablag'i o'tkazib qo'yishlari shart.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, O'zbekistonda 2020 yildan boshlab auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlarini xalqaro audit standartlari asosida o'tkazishi munosabati bilan audit rivojlangan davlatlardan andoza olgan xolda auditni yangi bosqichiga olib chiqish maqsadga muofiq deb hisoblaymiz.

5.Tadqiqot natijalardan ma'lum bo'ldiki, AQSH va Kanada davlatlarining auditorlik faoliyati rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. AQShda auditorlik faoliyati nazorati davlat organlari bilan bir qatorda mustaqil auditorlik institutlari tomonidan olib boriladi. AQShning yaxshi tajribasi shundaki, audit jarayoni asosiy tushunchalari, tartiblari va hisobot berish amaliyotini o'z ichiga olgan milliy standartlariga asoslanadi.

AQShda auditorlar individual shaklda ham faoliyat yuritish huquqiga ega. Hozirgi kunda yurtimizda auditorlik tizimida xalqaro tajribalar asosida yangi bosqichga ko'tarilayotgan paytda, bizning amaliyotimizga individual auditorlar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

6.Kanadada davlat moliya nazoratining asosiy organi Bosh auditor boshqarmasidir. Boshqarma auditning uchta turini o'tkazadi: moliyaviy, maxsus va boshqaruv auditi (har yili davlat boshqaruvi subektlarida 30-50 ga yaqin tekshiruvlar o'tkaziladi). Boshqarma tomonidan o'tkaziladigan har qanday

tekshiruv 18 oygacha davom etishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Kanadaning auditorlik tizimida boshqaruv auditi alohida o'rin tutadi. Boshqaruv auditining asosiy funksiyalardan biri davlat tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar, maqsadli davlat dasturining bajarilishi davlat resurslarini tejash va davlat xarajatlari samaradorligini ta'minlash bo'yicha mustaqil monitoring olib boradi. Bizning amaliyotda ham boshqaruv auditini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, chunki har yili jalb qilinadigan investitsiyalarni, davlat dasturlarini, davlatning tashqi qarzlarini mustaqil auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va parlamentga tekshiruv natijalarini taqdim etish orqali davlat mablag'larini samarali sarflanishini nazorat qilishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot shuni ko'rsatdiki, 1997-1998 yillarda janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida moliyaviy inqiroz yuz berdi. Bu inqiroz Janubiy Koreya davlatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Janubiy Koreya davlati moliyaviy inqiroz sababli auditorlik faoliyatini isloh qilishga kirishdi va Xalqaro audit standartlaridan kelib chiqqan holda o'zining milliy standartini ishlab chiqdi. Auditorlik faoliyatni isloh qilish jarayonida korporativ audit termini o'rniga audit komissiya paydo bo'ldi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada moliyaviy nazorat auditi va boshqaruv samaradorligini o'z ichiga olgan ichki nazorat masalasi asosiy masala darajasiga ko'tarildi.

7. Audit jarayonlarni avtomatlashtirish, avvalambor, "inson omili" bilan bog'liq bo'lgan oraliq hisob-kitoblarning barcha bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olishga yordam beradi

Bundan tashqari, ko'pincha auditor hisobotini AXSga muvofiq tuzish, avvalambor, yirik kompaniyalar va xoldinglar uchun zarurdir. Shunday qilib, yirik korxonaning auditor hisobotlarini tayyorlash bilan bog'liq kutilayotgan katta hajmdagi ishlar ushbu jarayonni tezlashtirish va korxonalar hisobotlarini tayyorlash bilan shug'ullanadigan ko'plab mutaxassislarining mehnat xarajatlarini kamaytirish maqsadida avtomatlashtirishni belgilaydi.

8. Yuqorida aytib o'tilganlarga asoslanib auditorlik faoliyatini rivojlanishi uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- auditor hisobotlarini tayyorlashda xalqaro tajribani AXS va O'zbekiston korxonalarining milliy xususiyatlaridan foydalangan holda o'zbek audit standartlarini muvofiqlashtiradigan asosiy dasturiy ta'minotni ishlab chiqish zarur;

- muammoning aniq bayonoti va malakali mutaxassislar tomonidan texnik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish;

Ushbu bosqich kelajakdagi loyihaning vazifalarini belgilashga jalb qilingan mutaxassislar, masalan, metodistlar, auditor hisoboti va xulosasi bo'yicha mutaxassislar va dasturchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi to'g'risida xabardorlikni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda kompaniya rahbariyati loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish yoki o'z xodimlarini tayyorlash maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilishi kerak. O'zining shaxsiy zaxiralaridan foydalanish kompaniyaga moliyaviy resurslarni sezilarli darajada tejashga imkon beradi, ammo bu ish jarayonida qoniqarsiz natijaga olib kelishi mumkin, chunki audit jarayonlarini xalqaro standartlarga muvofiq avtomatlashtirish nafaqat ushbu standartlarni puxta bilishni va xalqaro standartlar bilan ishlashda muhim tajribani talab qiladi. Avtomatlashtirish dasturining oxirgi foydalanuvchilari bo'lgan moliyaviy mutaxassislarining barcha hohish-istaklarini inobatga olgan holda dasturchilarga aniq bir vazifani qo'yishga qodir bo'lgan metodika bo'yicha mutaxassislarining korxonada mavjudligi nazarda tutiladi.

Bunday keng va professional kadrlar bazasi har qanday korxonada mavjud emasligi sababli,

shuningdek, kompaniyaning auditning xalqaro standartlari (AXS)ga o'tishi va auditor hisoboti va xulosasini avtomatlashtirishni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda, avtomatlashtirish muammosini hal qilishning tavsiya etilgan usuli moliyaviy dasturiy ta'minotni tayyorlashda muhim tajribaga ega bo'lgan uchinchi tomon mutaxassislarini jalb qilishdir.

Oddiy qilib aytganda, metodistlar mahsulotning xaridor mijozining yakuniy maqsadlarini tushunishlari va dasturchilarga ular yaratgan dasturdan qanday vazifalar kutilayotganligini tushuntirishlari kerak. O'zining funksiyalarini eng samarali bajarishi uchun ushbu mutaxassis AXSga muvofiq auditor hisobotlarini va xulosasini tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi va qo'shimcha ravishda ma'lum bir kompaniyaning moliyaviy buxgalteriya hisobi xususiyatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bunday mutaxassisni kompaniya tarkibiga jalb qilish tavsiya etiladi, chunki aynan shu korxonada ishchisi, boshqa hech kim kabi, dasturiy ta'minot ishlab chiquvchisiga kompaniya tayyor mahsulotda kutgan yakuniy maqsadlarini tushuntirib bera olmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli qarori. www.lex.uz
2. Терехова А.А. (2001) Аудит: перспективы развития. М.: «Финансы и статистика», -560 с.
3. Dusmuratov R.D O'zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish – iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. (2008)
4. Karimov A., Islomov F. va Avloqulov A. (2015) Xalqaro audit/ darslik/ Toshket / 397 bet
5. K. Axmedjanov, I. Yakubov: Audit asoslari/ darslik/ Toshkent-2010/ 291 bet.
6. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish – iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi/ Toshkent.(2016)
7. Аминов Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (10-1 (101)), 232-237.
8. Аминов, Ф. Б. (2022). УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.
9. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (4 (140)), 42-47.
10. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ.« ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
11. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Innovatsion texnologiyalar, 1(04), 108-111.
12. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Инновации в Экономике, 4(5).

13. Azimova, H. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
14. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.
15. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
16. Музафарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
17. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. *ECONOMICS*, (3), 33-42.
18. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & NAKIMOVICH, V. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
19. Турсунов, И., Рахматуллаев, А., & Бердиев, А. (2017). Формирование кластеров как фактор инфраструктурного обеспечения инновационного предпринимательства. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (2), 84-87.
20. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Prospects for Cluster Activities in the Agricultural Sector: Problems and Solutions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 99-108.
21. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Implementing Digital Technologies in Agricultural Sector. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 109-113.
22. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Issues of Increasing the Investment Potential of the Regions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 93-98.
23. Khakimovich, V. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
24. Туробов, Ш. А., & Фахриддинов, Б. Ф. Ў. (2021). УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИ ГАРОВИ СИФАТИДА. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 15-20.
25. Turobov, S. A., & Azamatova, G. I. (2020). REGIONAL CHARACTERISTICS OF HOUSEHOLD ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN KASHKADARYA REGION. *Economics and Finance (Uzbekistan)*, (2 (134)).
26. Turobov, S., & Azamatova, G. (2020). The Role Of Households In The Development Of The Digital Economy. *International Finance and Accounting*, 2020(3), 35.
27. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. *Theoretical & Applied Science*, (12), 104.
28. Усанов, А., & Раҳмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг туган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
29. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.

30. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
31. Alisherovich, T. S., & Iskandarovich, R. R. (2021). The Importance of Household Entrepreneurship in Providing Employment. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 177-182.
32. Аликулов, А. Т. (2019). Ўзбекистонда иқтисодий ётти либераллаштириш ва унинг капитал оқимига таъсири. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (6), 54-58.
33. Tuugunovich, A. A., & Islamovna, G. F. (2022). WHAT FACTORS INFLUENCE THE ACTIVITY OF RETAIL INVESTORS IN THE CAPITAL MARKET. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 373-380.
34. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
35. Toxirovna, S. G. (2021). Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 6, 1-5.
36. Samiyeva, G. T. (2021). The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*.
37. Маматов, А. А., Жураев, Т. Т., Назарова, Ф. Х., Хуррамов, А. Ф., & Маматов, М. А. (2020). Развитие хлопково-текстильных кластеров в экономике Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (9), 419-423.
38. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностранные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
39. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
40. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).
41. <https://audit.mf.uz/index.xhtmll>
42. www.accaglobal.com xalqaro axborot sayti.
43. <https://en.wikipedia.org/> xalqaro axborot sayti.
44. www.hocktraining.com xalqaro sertifikatlash dasturi bo'yicha axborot sayti.